

**QORAQALPOQ DOSTONLARIDA GO'ZALLIK KATEGORIYASIGA OID  
LIRIZMLARNING QO'LLANILISHI (“ALPOMISH”, “EDIGE” DOSTONLARI  
MISOLIDA)**

**Baxieva Jamila Abatbaevna**

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti 2-kurs magistranti*

**Annotaciya:** Adabiyotda lirika janridan tashqari boshqa janrlarda ham lirk elementlar ya'ni lirizmlar uchraydi. Shuning ichida folkloarning epik asarklarida ham, ayniqsa, dostonlarda lirizmlar faol ishtirok etadi. Lirizmlar insonda qandayda bir estetik hislarni uyg'ota olish qobiliyatiga ega. Ushbu maqolada dostonlarda qo'llanilgan lirizmlarning go'zal hislarni uyg'otuvchi kuchga ega ekanligi haqida so'z etiladi. Ya'ni, dostonlarda qahramon obrazin gavdalanganda yoki qandayda bir voqeadan xursand bo'lganda, sevinganda lirizmlar orqali gózallik kategoriyasiga oid estetik hislar namoyon boladi.

**Kalit so'zlar:** doston, syujet, lirizm, estet hislar, go'zallik kategoriyasi.

Dostondagi har bir qahramon voqealar izchilligida har xil holatlarga tushib o'tiradi, ya'ni ayrim joylarda baxtiyorligidan quvonadi yoki aksincha qanday da bir fojiadan nolib, kúyinib, qayg'u hislarini tuyib harakat etadi. Ularning harbir harakati doston o'quvchiga ta'sir etib, ma'lum darajada u ham o'sha hislarni sezadi. Sababi bunday joylarda lirizmler faol xizmat qiladi. Mana shunday hislar estetik hislar deb nomlanadi.

“Estetik hislar har xil kategoriyalarga bo'linadi. Masalan, chiroyli, yoqimli hislar asosida go'zallik kategoriyasi shakllanadi. Jirkanchli, yomon ko'rish hislari asosida jirkanchlik kategoriyasi, ko'tarinki, to'lqinlanish hislari asosida ko'tarinkilik kategoriyasi, kulgu orqali salbiy hislar asosida komedik kategoriyasi shakllanadi. Bundan tashqari, estetikada qahramonlik, tragedik kategoriylar ham bor. Estetik kategoriyalarning har birining o'ziga xos belgilari, qonunlari bor. Shularning ichida go'zallik kategoriyasini dostonlarda ko'p uchratamiz. Shunki, dostondagi bir qahramon syujet davomida yoki qanday da bir sirtqi muhitdan o'zida go'zallik hislarini ya'ni xursand bolish, sevinich, ko'tarinkilik va boshqa hislarni túyishi mumkin. Bunday hislarni ilm-fanda olimlar go'zallik kategoriyasiga kiruvchi estetik hislar deb nomlaydi va shunday izohlaydi «Inson badiiy asarni o'qiganda, ko'rganda yoki eshitganda, tinglaganda, umumiyl badiiy asarni qabul qilganda har xil estetik hislarni, shuning ichida ijobjiy hislarni qalbdan kechiradi. Bunday hislarni go'zal yoki chiroyli hislar deb yuritamiz va ular ilm-fanda go'zalliq kategoriyasi yoki qonuni deb yuritiladi. Masalan, Ájiniyozning ishqiy she'rlarini, Chekspirning sonetlerini o'qiganda, o'quvchi insonga xos bo'lgan asil hislarni, sevgi hislarini qalbdan kechiradi yoki Berdaqning «Amangeldi» asarini o'qiganda qahramonning botirligiga sevinamiz, qalbimizda unga degan iliq hislar

paydo bo'ladi. Demak, botirlik ishlar ham chiroyli hislarni uyg'otadi va ularni gózallik kategoriyasiga kirg'izamiz» [1:13]

Go'zallik kategoriyasiga kiruvchi estetik hislar dostondag'i bosh qahramonlarning ayniqsa ijobiy obrazlarni yaratganda ko'proq uch rashadi va uni o'quvchi o'qib o'tirib, o'zida go'zallik hislar uyg'onadi, o'sha obrazga ijobiy ko'z bilan qarab, syujet davomida unga yon bosib o'tiradi. Masalan qoraqalpoq xalq dostoni "Alpomish" dostonida Gulparshinning o'n ikki yashar vaqtini jirov shunday tariflaydi:

Talshıbıqtay buralǵan  
Kórgenniń aqlın algan  
Eki júzi gúl-gúl janǵan  
Qarshıǵaday qıyallanǵan  
Bir qız boldı tawlanǵan [2:9]

- desa ,endi on tórt yoshini shunday tariflaydi:

Munaqqat menen sóz qatqan  
Qayırıla berip naz etken  
Hár naz etkende  
Qıs toqsandı jaz etken  
Úyine kim kelse de  
Kimdi jaqsı demeydi,  
Kimdi jaman demeydi  
Xosh keldiń dep  
Qol qawsırıp uzatqan. [2:10]

Gulparshinning xabari butun aholi og'ziga yetadi, hatto uning go'zalligidan podshox ham xabar eshitadi, uning qulog'iga shunday tariflar yetib boradi :

Qamshı yańlı barmaǵı  
Gúmis yańlı tırnaǵı  
Ustaǵa barsań sandal bar  
Sandaldı kór de tósin kór  
Mollaǵa barsań qálem bar  
Qálemdi kór de qasın kór  
Shershige barsań hinji bar  
Hinjini kór de tisin kór  
Qara jerge qar jawar  
Qardı kór de etin kór  
Qar ústine qan tamar  
Qandı kór de betin kór. [2:10]

Bunday tasvirlarda go'zal yorning tashqi ko'rinishi bilan bir qator uning ichki ko'rinishi, yaxshi fazilatlari ham gavdalanadi. Masalan, yuqoridagi qo'shiq qatorlarining birida Gulparshinning mehmondo'st, odobli, qiz ekanligi bildirilib tur, jirov uni doston boshida tanishtirib o'tiradi. Qahramonni bunday tanishtirish o'rirlari qahramonlik

dostonlarda boshli qahramon yigitni tariflashda ham ko'zga tashlanadi, ya'ni uning tashqi ko'rinishi, qahramonlik harakatlari aks etadi. Masalan, "Edige" dostonida Edigega shunday tarif beriladi:

Aqsha atı bar astında  
Qońırawlı nayza dástinde  
Qundızlı soppas basında  
Joldası joq qasında  
Ayne on tórt jasında  
Rústem kibi aybatlı  
Siyumırıqtay simbatlı  
Arbadan keń kókiregi  
Arıstan juwan bilegi  
Tepsingende er qorıqqan  
Dárya qatıp muz bolǵan  
Lalawlasqan qalmaqtıń  
Toqsanǵa shıqqan kempiri  
Qorıqqanınan qız bolǵanday [4:17]

Bunday joylarda ham qahramonning portireti go'zallik hislarni keltirib chiqaradi, ya'ni o'quvchi sevinadi, uning tashqi ko'rinishining ta'rifidan hayron qoladi va shundoq qahramon ajdodi bo'lganidan iftixor hislarini o'zida tuyadi.

Dostonlarda qo'llaniluvchi go'zallik kategoriyasin bildiruvchi hislardan yana biri – bu ko'tarinkilik hislar hisoblanadi. Bu hislar qahramonning qanday bir hollardan sevinishi, ichki ruwxiyatining ko'tarilishi, to'lqinlanishi demakdir. Bu haqida filologiya ilimlarining doktori , professor Q. Járimbetov shunday fikr bildiradi : "Ko'tarinkilik kategoriyasi – asosiy estetik kategoriyalardan biri. Kundalikli, oddiy turmush chegarasiga sig'maydigan katta jamoatlik voqealar, holatlar, qatordagi odamning ish-harakati o'lchamlaridan anchagina oshib ketuvchi qahramonlik ishlar badiiy adabiyotta ko'tarinki tasvirlashning nishonasi bo'la oladi. Ko'tarinki tasvirlashlar o'quvchini to'lqinlandirib, go'zal, ko'tarinki hislar uyg'ota oladi". [1:14]

Bunday hislarga misolni ikki dostonda ham uchrata olamiz. Dostonlarda botirning va boshqa personajlarning qalbida qandayda bir nihoyatda sevinish, to'lqinlanish, ko'tarinkilik hislari qanday da bir shart-sharoitlarga, holatlarga aloqador vujudga kelsa, ular lirika bilan aks ettiriladi. Masalan, «Alpomish» dostonida bosh qahramon Barshın ot bayroqtan Bayshubar o'zib kelganda quwanganidan hayajonlanib, to'lqinlanib Alpomishni tabriklaydi, unga ko'tarinki, tabrik so'zlar aytadi.

-Abiray alipsań qalmaqtan,  
Sırın bilmegen jat jurttan,  
Kóz aydın bolsın, sáwer yar,  
Atıń ozıptı bayraqtan.

Ashıldı baǵda anarım,  
Jandı gáwhardan panarım,  
Kóz aydın bolsın, sáwer yar,  
Ozıp kelipti Bayshubariń.

Talaj bolsın múlki-malım,  
Tásaddıq bolsın shiyrin janım,  
Shubariń óttime bayraqtan,  
Kóz aydın bolsın, sultanım. [3:452]

Bu tabrik so'zlar, albatta, ko'tarinki hislardan kelib chiqadi, bunday ko'tarinki hislar bo'lsa Bayshubar ot bayroqtan o'zib kelganda quvonganidan paydo bo'ladi. Xursand bo'lish, sevinish kabi emotsiunal hislarni berganda jirov lirikaning imkoniyatlaridan foydalanib boradi.

Bu epizodtan keyin Gulparshin musobaqaga qo'shib, to'qson otni izda qoldirib, o'zib kelgan Bayshubarga qattiq sevinadi, uni yaxshi odamga, yaxshi do'stga o'xhatib, unga iliq-iliq so'zlar aytadi, rag'bat so'zlar aytib, xushomad qiladi:

Shiraǵım, Shubarım keldiń be?  
Aǵańniń waqtin xosh etip,  
Batıl kewlimdi yosh etip,  
Bende bolǵan ǵárip bashım,  
Jat ellerden azat etip,  
Dáwletim, Shubarım, keldiń be?

Iǵbal-talayım ashilsın,  
Duz-nesiybem men ǵáriptiń,  
Qońrat ellerge shashilsın,  
Shiraǵım, Shubarım, keldiń be?  
Tasqa tiygen tórt tuyagiń,  
Aq siyneme basilsın. [3:453]

Gulparshinning bunday ko'tarinki so'zlarni aytishining sababi uning tag'diri ot bayroqtan Bayshubarning o'zib kelishiga aloqador edi. Agar Bayshubar ot musobaqasidan o'zib kelsa, kelishilgan shart bo'yicha Gulparshin Alpomish bilan tug'ilgan yurti Baysin-Qo'ng'irotqa ketadi, musobaqada o'za olmay qolsa Qolmaq yurtida qolib, Toyshixanga turmushga shiqib, unga hayotini baxsh etishi zurur. Biroq, bu axvol Barshın uchun katta qayg'u, katta musiybat edi. Ushbu qayg'udan xalos bo'lganiga, ishi o'ngiga aylanib, taǵdiri Alpomishga qo'shganiga qattiq quvonib, Bayshubarga xushomad, rag'bat so'zlarni ko'tarinki kayfiyatta aytadi. Unga g'oyat rozi bo'lib : «Toshqa tiygan to'rt tuyag'ing, oq siynama bosilsın» deydi.

Demak, epik dostonlarda xursandshilik, ko'tarinki, to'lqinli ichki hislar personajlarning harakatlaridan, voqealarining rivojlanish yo'nalishidan kelib chiqadi.

Ularning rivoji lirik momentlarni yoki personajlarning ichki hislarining, ma'naviy tebranishlarining tashqariga chiqishini taminlaydi. Bunday to'lqinlangan, ko'tarinki yoki g'oyat quvonchli momentlarni oddiy hangoma usuli bilan tasvirlaganda, ular tinglovchilarga g'oyat ta'sirchan bo'la olmas edilar. Jirovlar buni yaxshi bilgan, binobarin ular bunday estetik to'lqinli momentlarni lirika janrining imkoniyatlaridan toliq foydalanib, tinglovchilarga kuchli emocional ta'sir uyg'otish uchun aks ettirgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Jarimbetov Q. Ádebiyattaniwdan sabaqlar. O'quv qo'llanba. Nukus, «Qaraqalpaqstan», 2012
2. Қарақалпақ фольклоры. 1-том. «Алпамыс» Хожамберген Ниязов (Өгиз жыраў варианты). Нөкис, «Қарақалпақстан», 2007
3. Қарақалпақ фольклоры. 4-том. «Алпамыс» Қыяс жыраў Қайратдинов варианты. Нөкис, «Қарақалпақстан», 2007
4. «Едиге» дәстаны. Ерполат жыраў варианты. Нөкис: «Қарақалпақстан», 1990